
Sektorlar faoliyatidan: Muammolarni hal etish-shu kunning talabi

Bugun 2-sektor hududiga qarashli "Ar Roshidoniyy" mahalla fuqarolar yig'inida tuman prokurori Rustamjon Madaliev, tegishli bo'lim, tashkilot rahbarlari va mahalla fuqarolari ishtirokida sayyor qabul tashkil etildi. Sayyor qabulda fuqarolar asosan elektr energiyasining uzilishi, yo'l ta'miri, soliq bilan bog'lig' muammolar, maktabga borish uchun piyodalar yo'lakchasi qurish masalalari bo'yicha murojaat qilishdi. Jismoniy va yuridik shaxslar murojaatlari bo'yicha navbatdagi qabulda jami 12 nafar fuqarolar murojaat qildi.

Murojaatlarning 4 tasi joyida hal etilgan bo'lsa, 5 tasiga huquqiy tushuncha berilib, qolgan murojaatlar o'rganish uchun nazoratga olindi. Qabul jarayonida fuqarolarning murojaatlarini ijobiy hal qilish maqsadida tuman prokurori tomonidan tashkilot va korxonalarining mutasaddi rahbarlariga topshiriq va ko'rsatmalar berildi.

2022-11-29 18:55:07